

**CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA EKSTREMAL  
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA VAZIYATLI YONDASHUVNING O'ZIGA XOS  
JIHATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15094621>

**Qo'chqorov Sobirjon Ahadjonovich**

*Farg'ona davlat universiteti*

*harbiy ta'lism fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikli o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Vaziyatli yondashuv asosida huquqbazarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi bo'lajak mutaxassislarining jangovar, tezkor va faol xususiyatga ega bo'lgan, shu bilan birga jamiyatni insonparvarlashtirish, uning insonga, inson huquqlari va manfaatlariga murojaat qilishida huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari faoliyatining mohiyatiga va vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Vatanparvarlik, ekstremal, kompetentlik, Vaziyatli yondashuv, stress, cheklangan vaqt, murakkab, o'qituvchi, talaba, sinf, guruh, jamoa, metodologik, pedagogik, chaqiriqqacha harbiy ta'lism.*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается сущность деятельности сотрудников правоохранительных органов в сфере профилактики правонарушений и обеспечения общественной безопасности, которая, исходя из ситуационного подхода, имеет боевой, оперативно-деятельный характер, одновременно гуманизируя общество, его обращение к человеку, правам и интересам человека, служит воспитанию чувства патриотизма.

**Ключевые слова:** Патриотизм, экстрем, компетентность, ситуативный подход, стресс, ограниченное время, комплекс, учитель, ученик, класс, группа, коллектив, методический, педагогический, военная подготовка перед призывом.

**Abstract:** *This article examines the essence of the activities of law enforcement officers in the field of crime prevention and public safety, which, based on the situational approach, has a combat, operational and active nature, while humanizing society, its appeal to a person, human rights and interests, serves to foster a sense of patriotism.*

**Keywords:** *Patriotism, extreme, competence, situational approach, stress, limited time, complex, teacher, student, class, group, team, methodological, pedagogical, military training before conscription.*

Vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri – vatanparvarlik va vaziyatli yondashuvning birligidir. Tarbiyaning barcha pog'onasida vatanparvarlik va vaziyatli yondashuvning vazifalari organik o'zaro bog'langanligi va o'zaro shartlanganligi vatanparvar shaxsni shakllantiradigan, doimiy ravishda nima uchun inson

huquqlari va manfaatlarini, o'z Vatanini himoya qilayotganini eslatib turadigan qudratli omil bo'lib xizmat qiladi.<sup>19</sup>

Talabalarning ekstremal kompetentlikni rivojlantirish modeli va texnologiyalarini takomillashtirish mazkur jarayonni tashkil etishga doir izlanishlar hamda tamoyillarini aniqlashtirishni taqozo etadi. Shuning uchun ham, bizningcha, har qanday ilmiy ishning eng ustuvor vazifalaridan biri, aniq tadqiqotning dastlabki nuqtai nazarları va amalga oshirish usullarini aniqlash hamda tahlil qilish, ularning kelajakdagı istiqbollarini to'g'ri baholash, keyinchalik bilish vositasi sifatida foydalanishdan iborat. Bu esa talabalarning ekstremal kompetentlikni rivojlantirishga oid yondashuvlar mohiyati va imkoniyatlarni tahlil qilish bilan bevosita bog'liq.

Mazmuniga ko'ra "yondashuv" atamasi ko'p qirrali bo'lib, quyidagi xususiyatlarni ifodalaydi:

- ta'lism ishtirokchilarining ijtimoiy ong va o'zaro munosabatini aks ettiruvchi g'oyaviy kategoriya;
- ta'lism jarayoni, uning komponentlari, pedagogik munosabatlarning subyektlari – pedagog va ta'lism oluvchilrning o'zaro faoliyatini tizimli tashkil etish;
- tadqiqot obyektini ifodalaydigan tushunchalar sifatida fundamental metodologik yo'naliш;
- faoliyatning asosiy mazmuni va yetakchi g'oyalarini belgilaydigan tamoyillar yig'indisi;
- o'qituvchining talabalar va sinf-guruh jamoasi bilan o'zaro muloqotdagi madaniyatini belgilaydigan asosiy aksiologik yo'nalanganlik.

Biz tadqiqotimizda nazariy va amaliy ahamiyatga ega materiallarni o'rganish asosida talabalarning ekstremal kompetentligini rivojlantirishga doir vaziyatli yondashuvni aniqlashtirdik.

Bugungi kunda ta'lism jarayonida talabalarning ekstremal sharoitlarda (stress, cheklangan vaqt, murakkab vazifalar) kompetentligini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Vaziyatli yondashuv ushbu kompetentliklarni shakllantirishda samarali usullardan biri hisoblanadi.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lism yo'nalishi talabalarida ekstremal kompetentlikni rivojlantirish jarayonlari va subyektlar faoliyatining tez o'zgaruvchan xususiyatlari yana bir metodologik yondashuvni joriy etishga e'tibor qaratish zaruriyatini belgilaydi, ya'ni boshqariluvchi obyektning ma'lum bir sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning ma'qul uslubini qo'llashni talab qiladi.

**Vaziyatli yondashuv** – chaqiriqqacha harbiy ta'lism yo'nalishi talabalarida ekstremal kompetentlikni rivojlantirish jarayoni samaradorligini aniq vaziyatlarga ko'ra aniqlashni ko'zda tutadi. Vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko'ra subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

<sup>19</sup> Досумходжаев Ф.А. Вазиятли ёндашув асосида бўлажак хукуқшуносарнинг ватанпарварлик туйгусини ривожлантириш механизmlари: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2022. – Б. 13.

Vaziyatli yondashuvda boshqariluvchi obyekt hisoblangan ta'lif jarayonining aniq sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish mazkur jarayon samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Vaziyatli yondashuv jarayonida quyidagilarni inobatga olish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi:

- muhim ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni aniqlash maqsadida ta'lif jarayonining vaziyatlarini tahlil qilish;
- ta'lif jarayonida turli vaziyatlarda erishiladigan natijalarning samaradorligini aniqlash;
- ta'lif-tarbiya jarayonini va subyektlar faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishni rejalashtirishda mavjud vaziyatlar asosida ta'lif jarayonining rivojlanishini oldindan belgilash.

Tadqiqotchi F.A.Dosumxodjayevning ishi vaziyatli yondashuv asosida bo'lajak xuquqshunoslarning vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish mexanizmlariga bag'ishlangan bo'lib, unda bo'lajak huquqbazarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasi mutaxassislarini tayyorlashning pedagogik omillari ekstremal vaziyatlarda vatanparvarlik tuyg'usini namoyon etish, o'zgaruvchan holatlarda professional faoliyati natijalarini tezkor hamda adekvat baholash kompetentligi uyg'unligini izchil ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

Vaziyatli yondashuv asosida huquqbazarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi bo'lajak mutaxassislarning jangovar, tezkor va faol xususiyatga ega bo'lgan, shu bilan birga jamiyatni insonparvarlashtirish, uning insonga, inson huquqlari va manfaatlariga murojaat qilishida huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari faoliyatining mohiyatiga va vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishi kerak.

"Vaziyatli yondashuv" atamasi lotincha vaziyat, holat, ahvol so'zidan kelib chiqqan. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, vogelik subyektlariga, ularning munosabatlariga ta'sir qiluvchi va ularning atrofidagi yoki bog'liq obyektlarga ta'sirini belgilovchi omillarning har qanday birikmasini vaziyat deb atash mumkin.

Bugungi kunda ta'lif jarayonida talabalarning ekstremal sharoitlarda (stress, cheklangan vaqt, murakkab vazifalar) kompetentligini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Vaziyatli yondashuv ushbu kompetentliklarni shakllantirishda samarali usullardan biri hisoblanadi.

### **Vaziyatli yondashuvning asosiy jihatlar**

<b>Nº</b>	<b>Jihatlar</b>	<b>Mazmuni</b>
1.	Real vaziyatlar	Talabalar real hayotdagi ekstremal vazifalar yechimiga jaib qilinadi.
2.	Qaror qabul qilish	Murakkab vaziyatlarda tez va to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmasi.
3.	Analitik fikrlash	Ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatları.
4.	Psixologik chidamlilik	Stress va bosim ostida ishslash kompetentligini oshirish.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lif yo'nalishi talabalarida ekstremal kompetentlikni rivojlantirish dolzARB pedagogik masala bo'lib, u zamonaviy ta'lif tizimida muhim o'rIN egallaydi. Tadqiqotda ekstremal kompetentlik tushunchasi, uning pedagogik asoslari, tarkibiy qismlari hamda rivojlantirish metodlari atroflicha yoritilgan.

Ekstremal kompetentlik — bu noaniq, stressli va favqulodda sharoitlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalovchi muhim kasbiy sifatdir. Uning tarkibiy qismlari nazariy bilim, amaliy ko'nikma, moslashuvchanlik, qaror qabul qilish va refleksiya qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar ilgari surilgan bo'lib, ularning aksariyati kasbiy madaniyat, psixologik barqarorlik va innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lif to'g'risida"gi O'RQ-637-son qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi 458-sonli «O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida»gi Qonuni.
4. Atayeva N., Rasulova F., Soliyeva M., Xasanov S., Umumiy pedagogika // Toshkent – 2012- B.196.
5. Boreham, N. and M. Fischer (2009). The Mutual Shaping of Work, Vocational Competence and Work-Process Knowledge. R. Maclean and D. Wilson (Eds.), International Handbook of Education for the Changing World of Work. Dordrecht: Springer,- P. 1593-1609.
6. Brinkman, B., Westendorp, A.M.B., Wals, A.E.J. and Mulder, M. (2007). Competencies for Rural Development Professionals in the Era of HIV/AIDS. Compare: A journal of comparative education, 37, 4,- P. 493–511.
7. Development and implementing local educational standards / Ed. by Meyers R.ERIC-Clearing House on Assessment and Evaluation, 1998.–P.15.
8. Intercultural and digital competence in teacher training from an international perspective: Poland, Portugal, Slovakia, Spain and Russia / P. Yesteban [yet al.] // RELATEC-Revista Latinoamericana de TecnologíaEducativa. 2015. No. 14 (1). P. 145–157. URL: <http://relatec.unex.yes/article/view-File/1855/1199>